

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10900198>

## DASTLABKI AYIRBOSHLASH VOSITASI – QADOQTOSH

**Hursanaliyev Nodirbek Raxmatali o‘g‘li**

Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy xodimi  
[nodirbekhursanaliyev@gmail.com](mailto:nodirbekhursanaliyev@gmail.com).

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyida saqlanadigan girya (tarozutoshi) asosida eneolit va bronza davriga oid ayiriboshlash va savdo uchun foydalanilgan vositalar haqida to‘xtalib o‘tilgan. Shu bilan birga qadoqtoshlari tarixi va arxeologiyasi to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** qadoqtosh, “Andijon tarixi”, Namozgoh I, girya, So‘x toshumori, she, sikl, mina.

## ПЕРВОНАЧАЛЬНОЕ СРЕДСТВО ОБМЕНА

**Аннотация:** в данной статье рассматриваются орудия обмена и торговли эпохи энеолита и бронзы на основе гирии (весов), хранящихся в Государственном музее истории и культуры Наманганской области. Вместе с тем даются сведения об истории и археологии камней-укладчиков.

**Ключевые слова:** набивка камня, «История Андижана», Намазгох I, грия, Сохский камень, она, цикл, шахта.

## THE INITIAL MEDIUM OF EXCHANGE

**Annotation:** this article focuses on the tools of exchange and trade of the Eneolithic and Bronze Age, based on the gyria (scale of scales) stored in the State Museum of History and Culture of Namangan Region. At the same time, information is given about the history and archeology of the packing stones.

**Key words:** packing stone, "History of Andijan", Namazgoh I, gria, Sokh stone, she, cycle, mine.

Qadimgi davrdan insoniyat hayoti va faoliyatida og‘irlik o‘lchovi muhim hisoblangan. O‘rta Osiyo, jumladan, Farg‘ona vodiysining eneolit va bronza davri og‘irlik o‘lchovi bo‘yicha ma‘lumotlar deyarli aniq emas. Shuningdek, Farg‘ona vodiysining bu davrlari arxeologik yodgorliklari ham bugungi kungacha to‘liq aniqlanmagan. Biroq, olimlar tomonidan ushbu masalaga bir oz bo‘lsa-da oydinlik kirita oladigan tadqiqotlar fan olamiga ma‘lum bo‘lmoqda. Ulardan bir “Andijon

tarixi” kitobida berilgan Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumani Qorasuv shahri hududidan topilgan tasodifiy topilma sifatida ko‘rsatilgan “qadoq tosh – tarozi toshi”dir. Qadoq tosh mualliflar tomonidan miloddan avvalgi III - II ming yilliklar bilan davrlashtirilgan bo‘lsa-da, kitobda ushbu buyumga alohida to‘xtalib, bu borada batafsil ma‘lumotlar berilmagan. Shunga qaramay, ta‘kidlash kerakki, mutaxassislar ushbu buyumni davrlashtirish sanasini to‘g‘ri belgilashgan ko‘rinadi. Fikrimizcha, bu kabi topilmalar Farg‘ona vodiysi hududida eneolit va ilk bronza davridan darak beruvchi buyumlar hisoblanadi. Albatta bunday buyumlar davri aniq bo‘lgan qatlamlardan topilganicha yo‘q, shunday bo‘lsa-da boshqa hududlarda aniqlangan shunday buyumlarga qiyosiy solishtirish tufayli, biz ularni eneolit va ilk bronza davriga taaluqli ekanligini bildirmoqdamiz.

Farg‘ona vodiysi hududida olib borilgan tadqiqotlar davomida aynan qadoq toshlar va ular aniqlangan hududlar, manzilgohlar bo‘yicha maxsus ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Bu borada dastlabki yangi fikrlar Farg‘ona davlat universiteti professori M. X. Isomiddinov va uning shogirdlari tomonidan bildirilmoqda[1].

Eneolit va ilk bronza davrining arxeologik obidalarini faqat Farg‘ona vodiysidagina emas, balki butun O‘zbekiston hududida ham deyarli aniqlanmagan. Lekin yuqorida ta‘kidlaganimizdek bu davr haqida darak beruvchi noyob buyumlar topilmoqda. Bunday noyob buyumlardan biri So‘x qishlog‘i yaqinida 2 metr chuqurlikda aniqlangan fanga “So‘x topilmasi”, “So‘x buyumi” yoki “So‘x toshtumori” sifatida ma‘lum bo‘lgan, bir-biriga xamla qilayotgan ikki ilon tasviri tushirilgan – qadoq tosh (giryani)ni keltirish mumkin.

Yana bir topilma Andijon viloyati Paxtaobod tumani Ozod qishlog‘i Bek mahallasidagi xonadonlardan birida xo‘jalik ishlari olib borish vaqtida 4,5 metr chuqurlikda aniqlangan 9 kg og‘irlikdagi qadoq toshini aytish mumkin.

Yana shunga o‘xshash topilmalardan biri bu – Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida KP-3450 qayd raqami bilan saqlanayotgan qadoq toshi – giryani tarozi toshidir. Muzey qayd daftariga ko‘ra, topilma 1964-yil 9-oktyabrda muzey fondiga Shomoldisoy qishlog‘i haydovchisi Sakatov Siardan qabul qilingan va ro‘yxatga olingan. Ma‘lumotnomada berilishicha, noyob buyum 1959-yilda Shomoldisoy qishlog‘i yaqinidagi qum kareeridan 2 metr chuqurlikdan topilgan. O‘sha vaqtdayoq buyum ro‘yxatga “giryani ...” – qadoq tosh – tarozi toshi sifatida yozilgan bo‘lib, u “...oxaktosh va alebasterdan yasalgan, og‘irligi 12 kg, dumaloq shaklda, dastali, bir tomoni shikastlangan”ligi qayd etilgan[2].

Bundan ko‘rinib turibdiki, topilma uzoq vaqt davomida mutaxassislar e‘tiboridan chetda qolgan. Yangi tadqiqotlar tufayli ushbu topilma to‘g‘risidagi ma‘lumotlar nashr yuzini ko‘rdi. Biroq qadoq toshi to‘g‘risida berilgan dastlabki

ma'lumotlarda bir oz chalkashliklar mavjud. Birinchidan, eksponat aniqlangan hudud Chust deb belgilangan, ikkinchidan, uning balandligi va dastasining o'lchovlari nomutanosib.

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida saqlanayotgan ushbu qadoq toshi o'rganilganda uning balandligi – 26 sm, kengligi – 26 sm, qalinligi (qorin qismida) – 17,5 sm, qorin qismi balandligi 15 sm, dastasi va asosiy qorin qismi orasi, ya'ni oraliq kengligi – 10,5 sm, dastasi va asosiy qorin qismi orasi, oraliq balandligi 6,5 sm, dastasining qalinligi, diametri – 5 sm, og'irligi – 12,344 kg ekanligi aniqlandi. Shuningdek, topilma dastlab aniqlangan joy bu Shamoldi-Soy qum kareri bo'lib, u Norin daryosi o'rta oqimida, hozirda ma'muriy jihatdan Qirg'iziston Respublikasi Jalol-obod viloyati Nooken tumani, Tosh-Ko'mir shahri tarixidagi shaharcha tipidagi Shamoldi-Soy qishlog'i hududiga to'g'ri keladi. Aytish kerakki, topilma hozirgi kunda Farg'ona vodiysining shimoliy, shimoli-sharqiy hududlarida aniqlangan qadoq toshlarning uchinchisi hisoblanadi. Shu o'rinda bunday qadoq toshlar Andijon viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida, Qirg'iziston Respublikasi O'sh viloyati O'sh shahridagi Sulaymontov muzeyi fondlarida ham mavjudligini ta'kidlash kerak[3].

Muammoning o'rganilganlik darajasi shuni ko'rsatmoqdaki, qo'limizda Andijon va O'sh muzeylaridagi saqlanayotgan qadoq toshlar topilgan joylar bo'yicha aniq ma'lumotlar mavjud emas. Shuning uchun, tadqiqotimizga faqatgina topilgan hududi aniq bo'lgan qadoq toshlarni qabul qildik. Shu vaqtgacha Andijon viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi va O'sh shahridagi Sulaymontov muzeyi fondlarida saqlanayotgan qadoq toshlar bo'yicha ham alohida ma'lumot keng jamoatchilikka taqdim etilmagan. Bu borada keyingi tadqiqotlarimizda batafsil to'xtalishga harakat qilamiz.

Qadoq toshlar birinchi bor R. Pampellining Amerika ekspeditsiyasi tomonidan Ashxobod yaqinidagi Anov manzilgohlarini qazish vaqtida topilgan. O'sha vaqtdayoq toshlarning ko'rinishi sezilarli darajada farq qilishi hamda turli og'irlikka ega bo'lishiga qaramay, ularning bir xil shakldaligiga e'tibor qaratilgan. Barcha toshlar odatda yumaloq bo'lib, ularning yuqori qismida gorizontol tutqichni tashkil etuvchi qo'l sig'ar darajada ushlar uchun oval ko'rinishdagi teshik bo'lgan[4].

Janubiy Turkmanistondagi qadimgi dehqonchilik manzilgohlarida aniqlangan qadoq toshlarni maxsus tadqiq qilgan V. A. Aleshkin, ularni Namozgoh I (mil. avv. 4800-4000 yillar) komplekslarida paydo bo'lishiga ishora qilgan. Shuningdek, u ushbu hududlardagi so'ngi davrga oid bunday topilmalar bronza davriga tegishli ekanligini aytib, Oltintepa yodgorligining yuqori qatlamlarida (mil. avv. 2300-1900 yillar) aniqlanganligini ta'kidlagan. Tadqiqotchi qadoq toshlarning og'irlik o'lchamlari turli xil ekanligiga e'tibor qaratgan.

V. A. Aleshkin tadqiqotiga ko'ra, aniqlangan qadoq toshlarning og'irlik o'lchovlari 4 kg, 5,5 kg, 7 kg, 19 kg, 26,5 kg bo'lib, ulardan 3 tasi orasidagi og'irlik 1,5 kg ni tashkil qilishiga e'tibor qaratgan va agar ketma-ketlik davom ettirilsa, demak 8,5 kg, 10 kg, 11,5 kg, 13 kg va h.k. og'irlikdagi qadoq toshlar mavjud bo'lishi kerak, degan fikrni o'rtaga tashlagan.

Agar Andijon viloyati Paxtaobod tumanidan topilgan qadoq toshining og'irligi 9 kg, Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida saqlanayotgan qadoq toshi og'irligi esa 12,344 kg (qadoq toshning bir tomoni shikastlangani ko'zda tutilsa, balki u 12,5 kg, hatto, 13 kg bo'lishi ehtimoldan holi emas) ekanini inobatga olsak, yuqorida V. A. Aleshkin tomonidan berilgan og'irlik o'lchovlariga to'g'ri kelmasligi kuzatiladi. So'x topilmasi og'irligi bo'yicha ma'lumot bergan G. I. Bogomolov uni 4,806 kg, ya'ni deyarli 10 mesopotamiya minasiga yaqinligini ta'kidlagan[5].

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, O'rta Osiyo og'irlik o'lchovlari maxsus tadqiq etilmaganligi uchun, qadimgi davr metrologiyasi Yaqin Sharq hududlarida keng tarqalgan she, sikl, mina kabi og'irlik o'lchovlariga yaqinligini ta'kidlash mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida saqlanayotgan qadoq toshi agar 12,5 kg bo'lsa = 25 mina, 13 kg bo'lsa = 26 minaga teng bo'lgan, deyish mumkin.

Xulosa qilib aytganda dastlab bunday qadoq toshlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini hisobga olish va ichki ayriboshlash uchun ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik, ehtimol bu og'irlik o'lchovlari tashqi savdo va almashinuvlarda keng foydalanilgan. Umuman, ushbu topilmalar nafaqat Farg'ona vodiysi, balki O'rta Osiyoning keng hududlarida og'irlik o'lchash uchun ishlatilgan torozi toshlari hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Explorations in Turkestan : Prehistoric Civilizations of Anau. Expedition of 1904
2. Namangan viloyat tarix va madaniyati davlat muzeyi katalogi. –Namangan: “Zakovat”, 2022.
3. Isomiddinov M.H. Sopolga bitilgan tarix. – T., 1993.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
5. Explorations in Turkestan : Prehistoric Civilizations of Anau. Expedition of 1904